

Samarqand yoshlari


Yoshlar va o'smirlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy gazeta

ISSN: 21813566 2025-yil, 30-sentabr, 18 (80)



**1-oktabr —
O'qituvchi
va murab-
biylar
kuni**

**Ustoz qadrin bilur har qalbi salim,
Hayot darslaridan bergaydir ta'lim,
Dillar ardog'ida – aziz muallim,
Kimsa sardor bo'lmas, ustoz bo'lmasa.**
(Mirzo Kenjabek)



BUNI O'QING...

QARZIMNI QANDAY UZAMAN?

Shifokor inson tanasini davolasa, ustoz ruhini shakllantiradi, muhandis uy qursa, ustoz o'zi bergan ta'lim va tarbiya bilan butun bir shaxsni bunyod etadi, olim kashfiyot qilsa, shoir she'r yozsa, davlat arbobi jamiyatni boshqarsa, o'qituvchi ana shu buyuk insonlarga saboq bergan ilk inson hisoblanadi.

[2-sahifa](#)

NARPAY YOSHLARI 923 MILLION SO'MLIK AMALIY YORDAM OLISHDI

Tuman hokimi tashabbusi bilan har oy "Hokim va yoshlar uchrashuvi" o'tkazilib, yoshlarning dolzarb muammolarini joyida hal etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. 2025-yil boshidan buyon 32 marotaba o'tkazilgan uchrashuvlarda 1 878 nafar yosh ishtirok etib, ularning ko'plab masalalari hal etildi.

[4-sahifa](#)

SAMARQANDLIK YOSHLAR O'ZBEKISTON OCHIQ KUBOGIDA 5 TA MEDALNI QO'LGA KIRITDI

Toshkent shahrida yengil atletika bo'yicha O'zbekiston ochiq kubogi sport musobaqasi o'tkazildi. Unda Samarqand davlat pedagogika instituti talabalari munosib ishtirok etib, jami 5 ta medalni qo'lga kiritishdi.

[7-sahifa](#)

KEYINGI SONDA:

**TIL BILISH
YAKSHI, LEKIN...**

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tomonidan ijaraga olingan uy-joylarning ijara to'lovlari to'lab beriladi.



MAHALLAM YOSHLARI DEHQONCHILIK ORTIDAN 70 MILLION SO'MGACHA DAROMAD OLISHMOQDA



Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash – ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Chunki yoshlar – jamiyatning tayanchi, ertangi kunning bunyodkorlaridir. Shunday ekan, bu borada yoshlarning ishonchini oqlash, har bir yigit-qizga e'tibor va imkon yaratish maqsadida yoshlar yetakchilari ko'prik vazifasini o'tamoqda. Ular sa-fida Bulung'ur tumanidagi so'lim va obod go'shalardan biri Dehqonobod mahallasi-ning jonkuyar va shijoatli yetakchisi G'ayrat Kubayev ham bor. U to'rt yillik yetakchilik faoliyati davomida ancha-muncha yoshning fikr-mulohazalarini o'rganib, to'g'ri yo'l ko'rsatishga erishgan.

[\(Davomi 3-sahifada\)](#)

ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR YO'LIDA INTILAYOTGAN YOSH OLIM

Yurtimiz yoshlarining bilimga, ilm-fanga va innovatsiyalarga bo'lgan intilishi tobora kuchayib bormoqda. Turli sohalarda faoliyat yuritayotgan iqtidorli yoshlar nafaqat respublika miqyosida, balki xalqaro maydonda ham o'z izlanishlari, tashabbuslari va g'oyalari bilan tanilyapti. Ular safida ilm-fan va innovatsiyalarga intiluvchi yosh olim, "QonLife" loyihasi muallifi, shu bilan birga "Yoshlar Akademiyasi"ning oliy ta'lim bo'yicha lideri Farruxbek Ashirov ham bor.

[\(Davomi 2-sahifada\)](#)



ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR YO'LIDA INTILAYOTGAN YOSH OLIM

Viloyatimizning cheka va so'lim go'shalaridan biri Qo'shrabot tumanining Qiyqim qishlog'ida tug'ilganman. Ilk ta'limni mahallamizdagi 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida oldim. Ilmga bo'lgan qiziqishim va texnologiyalarga bo'lgan intilishim sabab tahsilimni tumanimizdagi texnikumda IT (Axborot texnologiyalari) sohasi bo'yicha davom ettirdim. Bobojonim Umirzoq Ashirov, otam Azamat hamda akam Mavlon Ashirovlarning doimiy qo'llab-quvvatlashlari sabab kimyo va biologiya fanlarini chuqur o'zlashtirib, tibbiyot va IT sohasini uyg'unlashtirish maqsadida Samarqand davlat tibbiyot universitetining "Davolash ishi" yo'nalishiga o'qishga qabul qilindim. Bugun oliygohning iqtidorli talaba-yoshlaridan biri, 50 dan ortiq shogirdlarga ustozman. Universitetdagi

tahsilim davomida, ya'ni 2021–2024-yillar tibbiy mobil dasturlar ustida ilmiy izlanishlar olib bordim. Quvonarlisi, mehnatlarim o'z samarasini berib, loyihaning konsepsiyasini ishlab chiqdim hamda patent olishga muvassar bo'ldim. Loyihamning nomi "QonLife" deb nomlanadi. Bu zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar uyg'unligiga asoslangan loyiha bo'lib, respublikamizning tog'li va olis hududlarida yuzaga keldigan qon yetishmovchiligi muammosini samarali hal etishga xizmat qiladi. Loyiha doirasida dronlar orqali tibbiy qon zaxiralari maxsus sovutgichli konteynerlarda tezkor va xavfsiz tarzda yetkaziladi. "QonLife" — bu faqat



texnologik yechim emas, balki insonparvarlik va hayotni saqlab qolish yo'lida yangi umiddir. Bu loyiham orqali sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, tibbiy xizmatlar sifati va tezligini sezilarli darajada oshirishni maqsad qildim.

Harakat va intilishlarim o'z natijasini berib, tibbiyot sohasida xalqaro innovatsion tanlovlar va ilmiy musobaqalarda faxrli 1-o'rinlarni egalladim hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandim. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Yoshlar Akademiyasi" V Assambleyasida ishtirok etib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov tomonidan "Akademiya Liderligi" guvohnomasi va ko'krak nishoni topshirildi. Bundan tashqari, Samarqand davlat universitetida o'tkazilgan "Yil talabasi" ko'rik-tanlovining "Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi" nominatsiyasida

ham 1-o'rin sohibi bo'lganman. Universitetimiz rektori tomonidan "Rektor stipendiyasi" berilgan bo'lsa, Qo'shrabot tumani hokimi tumanimizdagi iqtidorli va intiluvchan yoshlarni "Hokim stipendiyasi" bilan mukofotlagan edi. Yaqinda davlatimiz rahbari bilan ham uchrashish baxtiga muvassar bo'ldim, ilmiy ishlarim haqida aytib, kelgusi rejalarimni taqdim etdim. Ushbu uchrashuvda yurtboshimiz tomonidan berilgan tavsiyalar asosida Rossiya Federatsiyasining Ijevsk shahridagi tibbiyot akademiyasida yozgi amaliyot dasturini o'tab keldik va yangidan yangi bilimlar oldim. Aynan mana shu amaliyotdan so'ng, Samarqand viloyatining chekka tumanlarida ilmiy loyihalarni joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqqandim.

Joriy yilda esa inson sezgilarini his qila oladigan protezik qo'l va oyoqlar texnologiyasi ustida tadqiqot boshlaganman. Bu oddiy protezik qo'l-oyoqlar emas, insonlar ularni his qila olishi kerak. Biz bu jarayonni sun'iy intellekt orqali amalga oshirmoqchimiz. Ushbu innovatsion loyiha orqali nogiron bemorlar uchun umid va sifatli hayot yaratmoqchimiz. Kelgusidagi rejalarim ham ilm-fan va innovatsiyalar orqali inson hayotini yaxshilash, yangi tibbiy texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

Umid qilamizki, yaqin besh yil ichida tibbiyot sohasi Farruxbek kabi ilm olish, o'rganish va o'rgatishdan charchamaydigan yosh va talabchan yoshlar sabab yana-da yuksaladi.



QARZIMNI QANDAY UZAMAN?

Ustoz... Har bir inson hayotida muhim o'rin tutuvchi inson. O'qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi o'rni, inson hayoti, taqdiri o'zgarishiga qo'shadigan hissasi beqiyosdir. Bir o'ylab ko'ring-a, bugun kim bo'lsak, qanday maqom yoki kasbda, qanday yutuqlarga erishgan bo'lsak, bularning ildizida ustozlarimizning sabr-toqati, mehnati turibdi. Hayotimizning eng muhim daqiqalarida yonimizda turgan, qo'llab-quvvatlagan, ilhom bergan, bizga yo'l ko'rsatgan insonlar orasida birinchi navbatda o'qituvchi turadi. Shuning uchun ham o'qituvchilik eng sharaflil kasblardan sanaladi.

Shifokor inson tanasini davolasa, ustoz ruhini shakllantiradi, muhandis uy qursa, ustoz o'zi bergan ta'lim va tarbiya bilan butun bir shaxsni bunyod etadi, olim kashfiyot qilsa, shoir she'r yozsa, davlat arbobi jamiyatni boshqarsa, o'qituvchi ana shu buyuk insonlarga saboq bergan ilk inson hisoblanadi. Ular sahnaga chiqib nom qozonmaydi, ular teleekranlarda kamnamo, ularning hayoti haqida gazetalarda ko'p yozilmaydi, ammo ustozning birgina sabog'i, bir og'iz nasihati, bir mehribon nigohi shogirdning butun hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Ustozning mehnati hech qachon besamar ketmaydi. Balki u bugun natija bermas, balki ertaga sezilmas, ammo yillar o'tgach, bir

shogirdning yutug'ida, bir kasb egasining muvaffaqiyatida, bir olimning kashfiyotida, albatta, ustozning mehnati meva beradi.

Yoshlarning tarbiyasi, kelajagi haqida gap ketganda, avvalo, ularni ilmi, ma'rifatli, ma'naviyatli qilib voyaga yetkazayotgan o'qituvchilar yodimizga tushadi. Bugun yoshlarimiz ko'p imkoniyatlarga ega: chet elda ta'lim olishmoqda, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishmoqda, til o'rganishmoqda. Ularning bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishida ham ustozlarning yo'l boshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar ustoz o'z shogirdiga to'g'ri yo'l ko'rsata olsa, unda jamiyat ham, kelajak ham yutadi. Shu bois bugungi kunda davlatimiz ta'lim tizimiga, ustozlarga katta e'tibor qaratmoqda. Yangi maktablar, yangi imkoniyatlar yaratilib, o'qituvchilarning mehnati qadrlanmoqda.

Sinf xonasida kundalik dars beribgina qolmay, ularning qalbiga mehr ila yo'l topayotgan, hayotiy muammolariga yechim topish, qiyinchiliklarni bosib o'tishda yo'ldosh bo'layotgan o'qituvchilar oldida barchamiz qarzodormiz, aslida. Biz erishgan yutug'imiz, eshitgan rahmatimiz, keltirgan foydamiz bilan ustozlarimiz oldidagi qarzimizning bir qismini uzishimiz mumkin.

Xo'sh, siz qarzingizni uzdingizmi?

Ishtixon tumanida ham boshqa tumanlar singari yoshlarga e'tibor, ularning ta'lim olishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, "Yoshlar daftari" bo'yicha tumanda 73 042 nafar yoshning ro'yxati shakllantirilib, shundan joriy yilda 365 nafar yosh kiritilgan. Berilgan yordamlar natijasida 329 nafar yosh daftardan chiqarilgan. Jumladan, 12 nafar yoshning bandligi ta'minlangan, 259 nafar yoshning to'lov-kontrakt pullari to'langan, 10 nafariga esa zaruriy mehnat qurollari uchun subsidiya ajratilib, o'z-o'zini band qilishga erishilgan. 16 nafariga safarbarlik chaqiruvi rezervi pullari, 8 nafariga haydovchilik guvohnomasi pullari to'langan, 24 nafariga boshqa turdagi yordamlar ko'rsatilgan. Ushbu yordamlar uchun jami 1 437,9 million so'm mablag' yo'naltirilgan.

Alohida ko'makka muhtoj "og'ir" toifadagi 778 nafar yosh ham xatlovdan o'tkazilib, ularning 32 nafari tashkilot rahbarlariga birlashtirilgan hamda ularning bandligini ta'minlashga



ISHTIXONLIK 2 453 NAFAR YOSHNING BANDLIGI TA'MINLANDI

mas'ul etib belgilangan. Shuningdek, huquqbuzarlik va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo'lgan 261 nafar yosh tumandagi 4 ta huquq-tartibot va mudofaa idoralari-ning 22 nafar mas'uliga otaliqqa birlashtirilgan. Ularning 36 nafari prokuraturaga, 143 nafari ichki ishlarga, 46

nafari favqulodda vaziyatlarga, 36 nafari Adliya xodimlariga otaliqqa berilgan. Tumanda huquq-tartibot organlarining mas'ullari tomonidan 204 nafar yosh sog'lomlashtirilgan.

Bundan tashqari, ishsiz hamda bitiruvchi yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida ham joriy yil maktab,

kasb-hunar maktablari, oliy ta'limni bitirgan 4 427 nafar yosh ro'yxati shakllantirilgan. Ushbu yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida bir qancha amaliy ishlar tashkil qilinib, natijada 2 453 nafar yoshning bandligi ta'minlangan. 341 nafari doimiy ish o'rinlariga, 186 nafari kasb-hunar va zamonaviy kasblarga o'qitilgan, 72 nafari tartibli migratsiyaga yuborish orqali bandligi ta'minlangan, 43 nafariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratilib, 1 811 nafari ta'limning keyingi bosqichiga jalb etilgan.

"Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalarida jami 24 turdagi tadbir va loyihalar tashkil etildi. Ushbu olimpiada uchun "5tashabbus.uz" platformasidan jami 102 624 nafar yosh ro'yxatdan o'tkazilib, shundan 90 000 nafarga yaqin yosh ro'yxatdagi yo'nalishlar bo'yicha tanlov va musobaqalarda faol qatnashgan. Shu vaqtgacha o'tkazilgan musobaqalarning respublika bosqichida tumanimiz yoshlari 2 ta 1-o'rin hamda 2 ta 2-o'rinlarni qo'lga kiritishgan.

MAHALLAM YOSHLARI DEHQONCHILIK ORTIDAN 70 MILLION SO'MGACHA DAROMAD OLISHMOQDA

(boshlanishi 1-sahifada)

2022-yildan buyon Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Dehqonobod mahallasida yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqdaman. Mahallamizda hozirda 1 882 nafar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar istiqomat qilishadi.

Bu katta kuch, salohiyat va imkon. Asosiy vazifam – shu yoshlarga kerakli sharoit yaratish, ularning bandligini ta'minlash, salbiy illatlardan uzoq tutish, orzu-maqсадlariga yetaklash. O'tgan yillar davomida yurtboshimizning tashabbusi bilan 200 dan ortiq yoshga "E-auksion" platformasi orqali 25 sotixdan 50 sotixgacha yer maydonlari ajratildi. Quvonarlisi, natijada

ba'zi yoshlarimiz bir mavsumning o'zida piyoz ekib, 70 million so'mgacha, kartoshka yetishtirib, 50 million so'mgacha daromad qilishdi. Bu ularning nafaqat iqtisodiy mustaqilligini ta'minladi, balki o'ziga bo'lgan ishonchini ham orttirdi. Albatta, eng quvonarli jihatlardan biri – ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning hayotida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Ularga yer ajratilib, daromad manbayi yaratildi. Bundan tashqari, 48 nafar yoshga kredit asosida motokultivatorlar olib berildi. Bu ularga dehqonchilikni mexanizatsiyalash orqali yanada samarali ishlash imkonini bergan bo'lsa, 35 dan ortiq yoshlarga oliy ta'lim muassasalarida o'qishlari uchun kont-rakt pullari to'lab berildi. Yoshlarning ijtimoiy

muammolariga yechim topish bilan bir qatorda, jinoyatchilikning oldini olish borasida ham muhim ishlar qilindi. Mahallamizda "Ko'cha sardorlari", "Fidokor yoshlar", "Qalqon guruhi" a'zolari tuzilib, nazoratni kuchaytirishga erishdim. Ularning yordamida "Besh tashabbus olimpiada"si doirasida uy-ma-uy yurib, yoshlarning qiziqishlari o'rganildi, sport, san'at, IT va boshqa yo'nalishlarga yo'naltirildi. Bu ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga xizmat qiladi.

Dehqonobodlik yoshlarimiz yangiliklar yaratish, izlanishda ham ancha talabchan. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yaratilgan loyihalardan ham unumli foydalanishyapti. Xususan, "Ibrat Academy"

ilovasidan o'ttiz mingdan ziyod yoshlarimiz ingliz, turk, nemis, rus tillarini o'rganishayotgan bo'lsa, kitobsevarlar "Mutolaa", "Aql jangi" "Uzchess", "Ustoz AI", "Qizlar Academy" ilovalaridan foydalanib, dunyoqarashini boyitishmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda yurtimizda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish bo'yicha ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. "Yoshlar ishlari agentligi" "Yoshlar ittifoqi", "Yoshlar parlamenti", "Yoshlar press-klubi" kabi tuzilmalar orqali ular davlat va jamiyat boshqaruvida faol qatnashyapti. Mahallamiz yoshlari nafaqat ta'limda ilg'or, balki sportda ham chakki emasligini isbotlashmoqda.

G'ayrat KUBAYEV
Bulung'ur tumani Dehqonobod mahallasi.



"ICE VITA" – MEVA VA SABZAVOTLARDAN MUZQAYMOQ ISTE'MOLINI YO'LGA QO'YMOQCHIMAN

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham kuchli. Yangi tashabbuslar, islohotlar va davlat dasturlari zamirida bit-ta maqsad – yoshlarning bilimli, kasb-hunarli, tashabbuskor va mustaqil fikrlovchi avlod bo'lib kamol topishini ta'minlash. Chunki mamlakat taraqqiyoti, xalqning ertangi kuni aynan bugungi yoshlarning qo'lida. Shunday tashabbuskor, ijodkor hamda izlanuvchan yoshlardan biri Jasmina O'tkirovadir.

— Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida dunyoga kelganman. Yoshligimdan o'qishga, ilm olishga jiddiy qaraganman. Maktab yillari hayotimda eng asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. O'qituvchilarimning e'tibori va oilamning qo'llab-quvvatlashi sababli o'qishga doimo mas'uliyat bilan qaradim. Maktab davrida turli fanlardan o'z ustimda ishlab, sinf va maktab miqyosidagi tadbirlarda faol qatnashar, turli olimpiadalar va musobaqalarda ishtirok etardim. Har bir yangi mavzu men uchun izlanish, savol va javoblardan iborat bir olam edi. Ayniqsa, iqtisodiy fanlar va tabiat bilan bog'liq yo'nalishlar men uchun juda qiziq edi. Bu qiziqishlarim keyinchalik tanlagan yo'limni belgilab berdi, desam adashmagan bo'laman.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlab katta maqsadlar bilan Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutiga o'qishga kirdim. Hozirda ushbu institutning 3-bosqich talabasi sifatida iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olyapman. Institutga kirishim men uchun katta yutuq bo'lib, bu nafaqat orzularimning amalga oshishi, balki kelajak yo'limning ham boshlanishi edi. Talabalik yillarimda ilmiy izlanishlarga, mustaqil ishlar va maqolalar yozishga alohida e'tibor qaratyapman. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, yangi innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish borasida o'rganish va izlanishlar olib boryapman. Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida bo'lib, ishlab chiqarish amaliyotlarida faol ishtirok etib keldim. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish ham mening maqsadlarim sirasiga kiradi. Xususan, Germaniyada bo'lganimda bir ajoyib narsaga ko'zim tushdi va buni O'zbekistonga innovatsion g'oya sifatida olib kelib loyiha qilishga qaror qildim. Hozirgi kunda "Ice Vita" sabzavot va mevalardan tayyorlangan muzqaymoq ustida ish olib boryapman. Loyihamning asosiy maqsadi meva va sabzavotlardan tabiiy ekologik toza va vitaminlarga boy bo'lgan muzqaymoq ishlab



chiqarish. Bu orqali men qandli diabeti bor kishilarning shirinliklarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, sabzavotlar iste'moli kamayib ketgan bolalar orasida iste'molni oshirishni maqsad qilganman. Ushbu loyiham bilan "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovining respublika bosqichiga yo'llanmani ham qo'lga kiritdim. Bugungi kunga qadar ilmiy faoliyatim davomida bir nechta maqolalar va taqdimotlar tayyorladim. Bu ishlar men uchun katta tajriba va kelajakdagi faoliyatim uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Maqsadim kelgusida o'z bilim va izlanishlarim orqali xalqimiz turmush darajasini yuksaltirish hamda zamonaviy ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan yoshlar safidan joy olishdir!

Jasmina kabi tashabbuskor, bilimga chanqoq va izlanuvchan yoshlarning ilmiy izlanishlari, innovatsion loyiha g'oyalari va mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlariga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

TUG'ILMAY MEN O'LAY...

yoxud ma'naviyatga choh qaziyapmiz



Tug'ilgan kun odatlari turli xalqlar va madaniyatlarga ko'ra farq qiladi, lekin asosan tug'ilgan kun egasini tabriklash, oila va do'stlar bilan yig'ilish, sovg'a berish, tort kesish va baxt tilash kabi umumiy an'analar mavjud. Tug'ilgan kun bu inson dunyoga kelgan sanasini yodga olish va nishonlash kuni. U inson hayot yo'lida yana bir yilni ortda qoldirib, yangi marralarga qadam qo'rganing ramzi sifatida qadrlanadi.

So'nggi yillarda yoshlar orasida g'alati, hatto jirkanch bir odat shakllanib boryapti. Kimningdir tug'ilgan kuni bo'lsa, o'rtoqlarining "hazil"i sifatida tuxum sotib olinib, kechasi tug'ilgan kun egasining boshiga uriladi. Avvaliga buni oddiy hazil deb, endi asta-sekin "marosim"ga aylantirib yuborishdi: tuxum yoniga "ketchup", "mayonez", un, kir yuvish kukuni, "gel" va boshqa narsalar ham qo'shila boshladi. Natijada o'sha "bechora" tug'ilgan kun egasi ustida oziq-ovqat va kimyoviy vositalar aralashib, jirkanch manzarani yuzaga keltiradi. Eng yomoni, jarayon, albatta, videoga olinadi va ijtimoiy tarmoqlarda "ajoyib tabrik" sifatida tarqatiladi. Go'yoki bu zamonaviy tabrik usuli, ammo video targ'ibot uchun juda "yaxshi" xizmat qilyapti. Aslida esa, bu na kulgili, na havas qilgulik holat. Uning tashqi ko'rinishi qanchalar xunuk va jirkanch ekanini tasavvur qilishning o'zi yetarli. Bunday ko'rinishdagi "hazil" birinchi navbatda isrofgarchilikdir. Axir nonni aziz biladigan xalqmiz, tuxum, un yoki boshqa oziq-ovqatni bekorga sochish na madaniyatga, na ma'naviyatimizga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, turli kimyoviy vositalarni inson tanasiga surtish sog'liq uchun ham xavfli. Oqibatda yoshlarning o'zi ham tushunmagan holda zarar ko'rishi mumkin. Bir-biridan g'alati, tarbiyaviy jihatdan ham yot madaniyat kirib kelishi-yu, uning yoshlar orasida ommalashib, kundan kunga "muxlis"lari ko'payib ketishiga jim qarab turish kun kelib, umuman, boshqa millatga, boshqa madaniyatli insonlarga aylanib qolishimiz mumkinligidan darak emasmi?

Axir tug'ilgan kun inson uchun eng quvonchli, hurmatli kunlardan biri bo'ladi, odatda. Uni mazax va jirkanch tomoshaga aylantirish milliy qadriyatlarimizga, insoniy odob-axloqlarimizga mutlaqo zid emasmi? Kim uni tarbiyaviy jihatdan maqbul, yoki madaniyatga mos, deb hisoblaydi? Oziq-ovqatni isrof qilish, inson sha'niga putur yetkazish va keyin bu bilan maqtanish esa xunuk illat. Tug'ilgan kun inson uchun yangi yilning boshlanishi, yangi umidlarning ramzidir. Uni kulgi va isrofgarchilikka emas, balki hurmat, mehr va samimiyat ila o'tkazmoqlik kerak, nazarimda. "Biz kim edik, kimlarga aylanib boryapmiz?"

Muxlisa UBAYDULLAYEVA.



BUGUNGI KUN BITIRUVCHISI – YORQIN KELAJAK BUNYODKORI

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida yosh avlodga, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarini tamomlayotgan bitiruvchilarga bo'lgan e'tibor va ishonch har qachongidan ham yuqori darajaga ko'tarildi. Chunki bugungi bitiruvchilar ertangi kun taraqqiyotining asosiy poydevori, Vatan ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishga tayyor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislardir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bitiruvchilar ilmiy, ziyoli, ma'naviyatli va xalqning ishonchini oqlay oladigan qatlamdir. Ular ta'lim dargohlaridan nafaqat puxta bilim olib chiqadi, balki kelajak avlodga uni qanday yetkazish, yurtga sadoqatli bo'lish, ma'naviy barkamollikni qadrlash ruhida tarbiyalanadi. Ular o'z oldilariga ulkan marralarni qo'yib, unga erishishda qat'iyat va intiluvchanlik ko'rsatmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi bitiruvchilarga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ular bir vaqtning o'zida bir nechta chet tillarini mukammal egallab, turli sohalarda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirmoqda. Shu bois bugungi kun yoshlari nafaqat o'z kasbiy yo'nalishida, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, yoshlar

orasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan kuchli qiziqish va qisqa muddatda yuqori darajaga erishish holatlari quvonarli va ibratlidir.

Misol tariqasida Samarqand davlat chet tillar instituti bitiruvchilarini keltirish mumkin. So'nggi yillarda bu dargohni tamomlagan yoshlar davlatimiz tomonidan olib borilayotgan "Yoshlar siyosati" doirasidagi islohotlardan, xorijiy grant va stipendiyalardan samarali foydalanib, katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ular xalqaro loyihalarda faol ishtirok etib, o'z bilim va salohiyatlarini namoyish etishmoqda. Eng asosiysi, bu bitiruvchilar bugungi kunda ta'lim maskanlarida ustoz sifatida, tarjimonlik faoliyatida hamda boshqa turli sohalarda samarali mehnat qilmoqda.

Bugungi bitiruvchi — kelajak bunyodkori, taraqqiyot poydevorini barpo etuvchi, xalq ishonchini oqlaydigan fidoyi yoshdir. Ularning har bir yutug'i mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Shu bois, yurtimiz ertangi kuni haqida so'z bor-ganda, ishonch bilan aytish mumkin-ki, bizning kelajagimiz bugungi bilimli, ma'naviyatli va fidoyi yoshlarga ishonib topshiriladi.

Gulnoza BOLTAKULOVA,
Samarqand davlat chet
tillar instituti
Ingliz tili fakulteti dekani.

NARPAY YOSHLARI 923 MILLION SO'MLIK AMALIY YORDAM OLISHDI



Bugun yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham kuchli. Turli tashabbuslar, qabul qilingan qaror va dasturlar zamirida bir maqsad mujassam yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi, kasb-hunar egallashi va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi. Bu borada Narpay tumanida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tumanda 103 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi, shundan 59 ming nafari 30 yoshgacha bo'lganlar. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash doirasida 2025-yilning 3-choragigacha "Yoshlar daftari" platformasi orqali 255 nafar yoshlarga 923 million so'mlik amaliy yordam ko'rsatildi. Ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida 629 nafar yosh "og'ir" toifaga kiritilib, ular bilan alohida uchrashuvlar tashkil etildi, muammolari hal etildi va ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashildi. Joriy yil davomida 25 nafar rahbarga 629 nafar ishsiz yoshni va 222 nafar xulq-atvorida o'zgarish bor yosh huquq-tartibot organlariga birlashtirish orqali ularni hayotda o'z o'rinlarini topishlari, bandligini ta'minlanishi va kasb-hunar egallashlari maqsadida birlashtirilgan.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan yoshlar tadbirkorligi yo'lida yangi davrni boshlab beradigan uchta muhim hujjat imzolandi. Jumladan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi, bitiruvchilar bandligi uchun Milliy bank resurslari yo'naltirildi,

Aloqabank esa "yoshlar banki" sifatida faoliyat boshladi. Narpay tumanida ushbu topshiriqlar asosida 11 kishidan iborat maxsus komissiya tuzilib, yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Aloqabank tomonidan esa bugungi kungacha 32 ta ilg'or biznes loyihaga 2 milliard 169,3 million so'mlik kredit ajratildi. Shundan 12 tasi xotin-qizlar tadbirkorligiga to'g'ri keladi. Bank orqali o'zini-o'zi band qilishni xohlovchi yoshlar uchun 100 million so'mgacha 7 yil muddatga imtiyozli mikroqarz berish yo'lga qo'yildi. Hozirgacha 30 nafar yosh ushbu imkoniyatdan foydalanish uchun murojaat qilgan. Tuman hokimi tashabbusi bilan har oy "Hokim va yoshlar uchrashuvi" o'tkazilib, yoshlarning dolzarb muammolarini joyida hal etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. 2025-yil boshidan buyon 32 marotaba o'tkazilgan uchrashuvlarda 1 878 nafar yosh ishtirok etib, ularning ko'plab masalalari hal etildi.


Yurtimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Narpay tumanida amalga oshirilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar yoshlarning faolligini oshirib, ularning ijtimoiy hayotda munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda. Bandlikdan tortib, tadbirkorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan tashabbuslar natijasida bugungi yoshlar ertangi kunning yetuk mutaxassisi va tadbirkorlariga aylanib bormoqda.

UNIVERSITETIMIZ "ERASMUS+" DASTURI DOIRASIDA QUARTZ LOYIHASIDA ISHTIROK ETMOQDA

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining ta'lim xizmatlari bozoriga kirib kelganiga hali uncha ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, biroq universitetning qisqa muddatli faoliyati davomida ta'lim va ilmiy tadqiqot sohalarda erishgan yutuqlari uning xalqaro jozibadorligini ta'minlab, xalqaro dasturlarda ishtirok etish imkoniyatini berdi. Mana shunday dasturlardan biri "ERASMUS+" dasturi bo'lib, u Yevropa Ittifoqining ta'lim, o'qitish, yoshlar va sport sohalarda loyihalar, hamkorlik, tadbirlar va mobillikni qo'llab-quvvatlash dasturi sifatida Yevropaning o'ttizdan ortiq davlati bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida

yuqorida ko'rsatib o'tilgan sohalarning barchasida hamkorlikni moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Hozirgi vaqtda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "ERASMUS+" dasturining QUARTZ – "Quality Assurance for Reform and Transformation of HEIs in Uzbekistan" (O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalarini isloh qilish va o'zgartirish hamda sifatini ta'minlash) loyihasida hamkor OTM sifatida ishtirok etib kelmoqda. QUARTZ loyihasi 2024-2027-yillarga



mo'ljallangan bo'lib, mamlakatimizning to'rtta oliy ta'lim muassasalari faoliyatini qamrab oladi. Bular Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Markaziy Osiyo universiteti, Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali va "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros

xalqaro universitetlaridir. Loyihaning xorijdagi hamkorlari esa Italiyaning L'Aquila universiteti va Bolgariyaning Varna menejment universitetlari hisoblanadi.

Loyiha oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash bo'yicha ilg'or bilim va tajriba almashinuvini rag'batlantirib, yevropalik hamkorlarning tajribalariga asoslanadi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv mamlakatimizning oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash va bitiruvchilarni xalqaro mehnat bozori talablariga samarali tayyorlash uchun kerak bo'ladigan

zarur vositalar va asoslar bilan ta'minlashga qaratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining (ta'lim, tadqiqot, ijtimoiy ishtirok va institutsional muhit) sifatini yaxshilash orqali mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Aziz TO'XTAMISHOV,
"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
"Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya" bo'limi boshlig'i, QUARTZ loyihasi ishtirokchisi.



Batafsil...





OLIIY TA'LIM MUASSASALARI: SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



TALABALAR "IN VITRO" LABORATORIYASI BILAN TANISHDI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Biotexnologiya va ekologiya fakultetining talabalar universitet huzuridagi "IN VITRO" ilmiy-amaliy laboratoriyasiga bordi. Shuningdek, talabalar laboratoriya jihozlari, ilmiy-uslubiy yo'nalishlari va amaliy tadqiqot jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan taqdimot va amaliy ko'rsatmalar talabalar bilimni yanada boyitib, ilmiy izlanishlarga qiziqishini oshirdi.



INTERNET FIRIBGAR- LIKLARIGA QARSHI – TALABALAR BILAN OCHIQ MULOQOT

"Talabalar xavfsizligi" oyligi doirasida oliygoh profilaktika inspektori, mayor A.Tojiyev va talaba-yoshlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi. Uchrashuv davomida yoshlarga internetdagi firibgarlik, zararli saytlar va kiberjinoyatlardan himoyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. Shuningdek, axborot savodxonligini oshirish, ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli va samarali foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Tadbir talabalar uchun nafaqat foydali bilim manbayi, balki ularda kibermadaniyatni shakllantirish va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kiberoxavflarga qarshi ongini kurashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.



HAYVONLAR FIZIOLOGIYASI VA BIOKIMIYOSI BO'YICHA XALQARO ILMIIY ANJUMANI

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent Do'stmurot Eshimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan "Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi, patologik fiziologiyasining veterinariya va chorvachilikni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda istiqboldagi rejalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

TALABALAR ERKIN FIKR, TAKLIF VA TASHAB- BUSLARINI BILDIRISHDI

Oliygo'ha rektori, professor X. Yunusov Biotexnologiya va ekologiya hamda Iqtisodiyot fakultetlari 1-bosqich talaba-yoshlari bilan uchrashdi. Uchrashuvda rektor talabalarga o'z sohasining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishida nimalarga e'tibor qaratish lozimligini aytib, universitetdagi mutaxassisliklarining jamiyatdagi o'rniga atroflicha to'xtaldi. Shuningdek, rektor rahbariyat xodimlarini talabalarga tanishtirish asnosida o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar, talabalar turar joyi va boshqa yo'nalishlarga to'xtaldi. Muloqot davomida universitet rektori talabalar taklif va tashabbusini doimiy qabul qilishga qaratilgan ishlar, erkin murojaat qilish uchun



yaratilgan imkoniyatlarga to'xtalib, me'yoriy asoslarga ega barchasini doim qo'llab-quvvatlashini bildirib, berilgan savol va takliflarga batafsil javob berdi.



"XON ATLAS" FESTIVALI QANDAY O'TKAZILDI?

Universitetda o'zbek milliy liboslariga mehr uyg'otish va uni ommalashtirish, sharqona kiyinish madaniyatini targ'ib qilish maqsadida tashkil qilingan ushbu festivalda barcha ayol xodimlar va talaba-qizlar atlas va adras matosidan tikilgan milliy liboslarda ishtirok etishdi. "Xon atlas" oyligi doirasida tashkil etilgan ushbu targ'ibot tadbirlarida xalqimizning ming asrlik tarixiy merosi, urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari hamda milliy liboslarimizning o'ziga xosligi namoyish etildi. Tadbirda universitet Xotin-qizlar maslahat Kengashi raisi J.Sayfiddinova va boshqalar milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni yoshlar qalbiga singdirish, milliy liboslar orqali ajdodlarimizdan meros qolgan betakror san'atni keng targ'ib qilish barchamizning azaliy burchimiz sanalishini ta'kidlashdi.

Tong otdi. Robiya buvi erta uyg'onib bir piyola issiq choy ichdida har kungidek ish joyiga jo'nadi. U havo issiqligini, uzog'i bilan o'nbir gacha bu issiqqa dosh bera olishini bilsa-da, har kuni ishga boradi. Uy egalari uyg'otib yubormaslik uchun zo'rg'a ilinib turgan, zanglagan darvozani sekin ochib chiqdi. Shox ko'cha tomon ildamlar ekan o'zining eski hovlisi o'rniga qurilgan hashamatli uyni ko'rib bir xo'rsindi-yu yana manzili tomon yurdi. Ko'cha keng, gavjum chorraha, hali soat 6 bo'lishiga qaramay odamlar ishga, o'qishga ba'zilar qayerga, nimagaligini bilmasa ham shoshib o'tar edi. Chorrahaning chetida do'kon zinalarining yonginasiga kichik gilamchasini yozdi-yu o'tirdi. Bir nafas ichida:

— Allohim qilayotgan ishimga to'g'ri emas bilaman, lekin boshqa ilojim yo'q yoshim 75 da biror joyda ishlashga madorim, suyanish uchun jigarim yo'q. Men faqat sendan so'rayman Allohim deb shivirladi va quyoshdan qoraygan, ozg'in qo'llarini sal oldinroqqa cho'zdi...

Atrof shovqin, haydovchilar tirbandlikdan diqqinapas bo'lar, signal chalar, havo esa daqiqaga sayin qizib borardi. Robiya buvi bu sharoitga ko'nikib qolgan, ba'zan tomog'i qurib, kimnidir suviga qarasa, ular suvni uzatishar, ba'zilar mayda chaqa, ba'zilar esa qo'lidagi yegulikni berar, kimlardir esa uning kichik jussasini payqamasdan ham o'tib ketar edi.

Issiqdan toliqib ko'zlari ilindi. Shu payt kimningdir turtganini sezdi.



MAJNUNTOLO

Xola, xola, o'ftobda qolibsiz bu sizga deb qo'lidagi soyabonni uzatayotgan yoshgina ayolga ko'zlari tushdi. Bu ayolni taniydi. U har gal o'tganida qizil hamyonidan pul berib o'tadi. Yuzini aniq ko'rolmasada, sumkasidan qizil hamyonini chiqarganida darrov taniydi.

— Yo'q, qizim, kerakmas, o'zing ishlat hozir ketaman.

— Yo'q, oling menda yana bor, bu sizga, bu ham deb pul uzatdi.

Robiya buvi qo'llarini ochib ayolni duo qildi.

— Xola hech kimgiz yo'qmi?

Robiya aya qaqragan qo'llarini yuziga surtarkan bu savoldan tanasi bir yaxlagandek bo'ldi. O'zi xohlama-da, ko'zlari yoshlandi-yu ayolga qarab.

— Yo'q, bolam hech kimim yo'q

deb jilmaydi-da, sekin boshini egdi.

— Boshizni egmang, xolajon, bo'ldi havo issiq, uyizga boraqoling bu ketishda kasal bo'pqlasiz.

Chiroyli ayol achinish ko'zi bilan qarardi. Bu Robiya buvini qilayotgan ishidan battar jirkantirar edi.

Kichik bir oshxonadan ovqatlanib, qo'lida qolgan mayda pullarni sanaganicha uyga qaytdi. Pullarni sanashga xalaqit bergan soyabon boyagi savolni eslatdi.

— Nega aldadim o'zi, ko'zlarimning nuri; ikki nabiram, tog'ni talqon qilgudek o'g'lim ham bor. Axir, ular



“Unutmang, bu dunyo imtihon dunyosi! Ba'zi insonlar aslida bizga sodiq emaslar. Ular bizga bo'lgan ehtiyojlari sodiqlar. Ehtiyojlari o'zgarishi bilan sadoqatlari ham o'zgaradi”. **(Bobur hayitov)**

Quyosh. Issiq havo. Katta yo'lda ketib borayotgan turli rusumdagi mashinalar. Yo'l chetida esa goh daraxtzor goh paxtazorlar ko'zga tashlanadi-yu, manzaralar yana tez-tez o'zgaradi. Yoz fasli. O'quv yilini tamomlab ta'tilda uyiga qaytayotgan talabalar yo'llarni to'ldirgan. Mashinada xayol surib borayotgan Elbek shu kabi manzaralarni ko'zdan kechirar, ba'zida haydovchining savollariga javob berib borardi. Hayot qiziq ekan. Insonlar aytganlarini unutib yuborishar ekan, qilganlarini ham unutib yuborishar ekan. Faqatgina ularga his qildirgan narsalarinigina eslab

YOSHILIK GAVHARI



qolishar ekan. Bunday hislarni ancha oldin his qilishga ulgurgan, kechagina ko'cha changitib o'ynab yurgan Elbek bugun katta arxitektor. Hozir esa Elbek onasini ko'rish uchun tug'ilib o'sgan mo'jazgina qishlog'iga yo'l olgan. Yo'lda ketib borar ekan onda-sonda uchragan bug'doyi allaqachon yig'ib olingan somonpoyalarni ko'rib bevosita yoshligini eslardi.

Yoz. Quyosh erta tongdan mo'ralab-mo'ralab barchaga tabassum ulashish maqsadida uzoq-uzoqlardagi tog'lar orasidan ko'kka bo'y cho'za

boshlaydi. Nozlanib, kelinchakdek egilib turgan yaproqlarda mitti shabnam tomchilari quyoshning iliq nurlarida dur kabi jilolanadi. Xo'rozvoy o'zining ovozini ko'z-ko'z qilishga uringandek baland qichqiradi. Katta-kichik sayroqi qushlar bir-biriga navbat bermay sayraydi. Onasiga borishga intiq, onasiga yetmas qilib bog'langan buzoqchalar go'dakdek tamshana-tamshana marab qo'yadi. G'o'rada turgan qo'zicholqlar ham atrofga alanglaydi.

Nargiza opa bugun ham har galgidek erta turdi. Xo'jayini Shamsiddin akani turtkilay-turtkilay zo'rg'a turg'azdi. Bolalari Sherzod, Dilshoda va Elbekni ham uyg'otishga urinib, tez yuzlarini yuvishini aytdi-da chelakni ko'tarib, sigir tomon yurib ketdi. Ikkinchi sigirni sog'a turib, bolalarining uyg'onganligini bilish maqsadida ularga bo'ynini cho'zib qarab qo'ydi. Dilshoda tez turdida hovliga suv sepib supura boshladi. Sherzod boshini ko'rpa orasiga suqib uyquni davom ettirar, Elbek esa chorpayoga tushayotgan quyosh nurlaridan uyqusi qochib turishga majbur bo'ldi. U oilada kichik farzand, yoshi endigina 13 ga chiqqandi.

Choy tayyor bo'lgach oilaning barcha a'zolari dasturxon boshida yig'ildi. Choydan keyin hamma o'z ishiga keta boshladi. Shamsiddin aka qurilishga, Nargiza opa uy ishlariga, Dilshoda paxta o'toq qilishga, Sherzod oliy ta'limga kirish imtihonlari yaqin bo'lgani uchun kitoblarini ko'tarib xonasiga kirib ketdi. Kenjatoy esa odatdagidek mol, qo'ylarni boqish uchun yaylovga keta boshladi. Elbek tabiatan sho'x, kenjatoy bo'lgani uchunmi biroz

erkaroq, yosh bo'lishiga qaramay qat'iyatli edi.

— Elbek tez bo'l kun qizishsa qo'zichoqlaring o'tlamay qo'yadi.

— Elbek akangni darsiga xalaqit berma.

— Elbek opang bilan tortishma. Deyarli har kungi shu kabi tanbehlardan bezor bo'lgan Elbek yaylovga, ya'ni somonpoyaga mollari va qo'zichoqlarini yoyib yuborib o'zi shu yerdagi do'stlari yoniga oshiqdi.

Doniyor, Shaxboz, Umrzoq, Ulug'bek latifa aytib bir-birini kuldirib o'tirardi. Elbek ham salomlashib ular safiga qo'shildi. Umrzoqqa navbat kelgan ekan avval o'zi mazza qilib kulib olib keyin latifasini ayta boshladi. O'g'il otasiga aytdi, — ada, ada men ertaga aniq besh olaman.

Otasi:

— Iye o'g'lim, qanday qilib besh olishingni oldindan aytyapsan.

O'g'il:

— Bugun men ona tilidan insho yozganimizda sinfimizdagi eng a'lochi qizdan ko'chirdim.

Diyora TEMIROVA,


Payariq tuman Guliston MFYda ijtimoiy xodima.

Ortga qaytarishning iloji bo'lmagan narsalar haqida emas, hali o'zgartirish imkoni borlari haqida qayg'urgan ma'qul.

(Margaret Mitchell)



**Sayrning ilinjida,
Bir kuni chiqdim boqqa.
Barglar gilamday bunda,
To'shalgan hamma yoqqa.**



**Baxt nasib et-
magan odamlar
yo'q. Faqat baxtini
saqlab qololma-
gan odamlar bor...**
(Andre Morua)

SAMARQANDLIK YOSHLAR O'ZBEKISTON OCHIQ KUBOGIDA 5 TA MEDALNI QO'LGA KIRITDI

Joriy yilda Toshkent shahrida yengil atletika bo'yicha O'zbekiston ochiq kubogi sport musobaqasi o'tkazildi. Unda Samarqand davlat pedagogika instituti talabalari munosib ishtirok etib, jami 5 ta medalni qo'lga kiritishdi. O'zbekiston terma jamoasi tarkibida qatnashgan yoshlar: Ruxshona Abduxoliqova 2 ta kumush medal, Quvonchbek Rahmatullayev, Azizbek Omonov va Azimjon Rahmonov esa 1 tadan kumush medalni qo'lga kiritishdi.



O'ZBOSHIMCHALIK BILAN YER UCHASTKASINI EGALLAB OLISH YOKI UNDA NOQONUNIY IMORAT QURISH QANDAY OQIBATLARGA OLIB KELISHI MUMKINLIGINI, BILASIZMI?

Asosiy Qonunimizning 15-moddasida fuqarolar ham davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan bir qatorda Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishlari lozimligi va yana 21-moddasida inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shartligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Demak, barcha harakatlarimizda, shu jumladan, o'zimizning hayotiy ehtiyojlarimizni ta'minlashda amaldagi qonunlarimizda belgilab qo'yilgan qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda ish tutishimiz kerak, aks holda oxirida nafaqat "Eh, attang", – deb pushaymon bo'lib qolishimiz, balki moddiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolishimiz ham mumkin.

Amaldagi yer to'g'risidagi qonunchiligimizga ko'ra, yer uchastkasidan foydalanish, shuningdek, unda yakka tartibda uy-joy qurish faqatgina elektron onlayn-aksion savdosi orqali olingandan so'nggina mumkin bo'ladi, boshqacha holda yerni egallab, undan foydalanish hamda bunday yerda uy-joy qurish qonunchilikka zid hisoblanadi va bu holat fuqaroning tegishli javobgarlikka tortilishiga, so'ngida noqonuniy qurilishning o'zini hisobidan buzilishiga olib keladi.

Avvalambor, o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat to'g'risidagi tushunchamizga qonunchilik nuqayi nazardan aniqlik kiritib olsak. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ajratilgan yer uchastkasida arxitektura va qurilish sohasidagi tegishli ruxsat beruvchi hujjatlarsiz, shaharsozlik normalari va qoidalarini buzgan holda, shu bilan birgalikda,




obyekt qurilishi nazarda tutilmagan yer uchastkasida qurilayotgan yoki qurib bo'lingan kapital hamda yengil konstruksiyali bino va inshootlar, shu jumladan, yerosti inshootlari o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshoot hisoblanadi (Mabna – Vazirlar Mahkamasining 28.03.2025-yildagi 192-son qarori). Yoki fuqarolik qonunchiligimizda belgilangan qoidaga ko'ra qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek, imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi.

Norqul SAFAROV,
Nurobod tuman Adliya
bo'limi boshlig'i, 3-darajali
adliya maslahatchisi.
Nurislom QUVONDIQOV,
tuman Adliya bo'limi
Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i.



Batafsil...



Batafsil...



MAQSAD, HARAKAT VA NATIJA – MAKTAB BILAN HAMKORLIK SAMARASI



Mahallamizda yoshlar yetakchisi sifatida faoliyatimni 2024-yilda boshladim. Ishimning ilk kunidayoq, maktab bitiruvchilarining imtixon natijalari bilan tanishib, chuqur o'ylarga tordim. Chunki o'sha yili 66 nafar bitiruvchidan atigi 1 nafari oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul

qilingan edi. U ham bo'lsa, davlat emas, balki xususiy ta'lim muassasasida o'qishni boshladi. Bu holat mahalla ahli, ota-onalar, ustozlar va, albatta, meni ham tashvishga soldi. "Nega yoshlarimiz orzu qilgan marraga yetmayapti? Nega ularda katta maqsadlar yetarli darajada shakllanmagan?" – degan savollar o'sha kunlarda ko'pchilikning xayolida aylanayotgan edi.

Shu o'ylar bilan men o'zim uchun bir xulosaga keldim: yoshlarga imkoniyatlar haqida vaqtida va to'g'ri ma'lumot berilmagan, ular bilan individual ishlash yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, eng muhimi – ularda maqsad qo'yish va unga intilish ruhiyati kuchli bo'lmagan. Yurtboshimizning yoshlarga qaratgan siyosati, ta'lim tizimidagi tub islohotlar, grant va stipendiya dasturlari, xorijiy ta'lim imkoniyatlari – bularning bari yoshlarga yetarli darajada tezkor va aniq yetkazilgan edi, natijalar, albatta, boshqacha bo'lishi mumkinligini chuqur his qildim.

Shu bois, joriy yil davomida maktab bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ydim. Ayniqsa, o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nilufar Obidova bilan birgalikda muntazam va tizimli ish olib bordik. Har bir o'quvchi bilan alohida suhbatlar o'tkazildi, ularning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilindi. Har bir bola uchun individual reja tuzildi, ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etildi. O'quvchilarga oliy ta'lim tizimining afzalliklari, qabul tartibidagi yangiliklar, turli yo'nalishlar bo'yicha grant dasturlari haqida batafsil tushuntirish ishlari olib borildi.

Natijada, bir yil davomida qilingan mehnat o'z samarasini ko'rsatdi. Joriy yilda maktabning 65 nafar bitiruvchisidan 10 nafari oltin medal bilan taqdirlandi. 4 nafar o'quvchi davlat grantlari asosida talaba bo'ldi. Yana 4 nafar o'quvchi kontrakt asosida oliy ta'lim muassasasiga qabul qilindi. 2 nafar o'quvchi esa xususiy OTMlarda o'qishni davom ettirmoqda. Bu ko'rsatkichlar maktab tarixida ilk bor qayd etildi. Avvalgi yillarda bunday natijalar umuman kuzatilmagan, hatto oliy ta'limga kirganlar soni ham bir qo'lining barmoqlarida sanalardi.

Bu natijalar shunchaki raqam emas. Bu – yoshlarga qaratilgan e'tiborning, davlatimiz rahbari siyosatining amaliy natijasi, maktab va mahalla hamkorligining yorqin ifodasidir.

Eng muhimi, yoshlarning ko'zida ishonch uyg'ondi. Ular "biz ham qila olamiz, bizning ham kuchimiz bor" degan fikr bilan yashay boshlashdi.

Diyorbek AKBAROV,
Urgut tumani O'zbekiston
mahallasi yoshlar yetakchisi.



Azizbek MAHMUDOV —

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 2-bosqich magistranti. “Abu Rayhon Beruniy” nomli nomdor davlat stipendiati. “Yil talabasi-2021” universitet bosqichi g‘olibi hamda respublika bosqichi ishtirokchisi. “Yosh gidravlik-2021” tanlovining universitet bosqichi g‘olibi. SamDAQU yoshlar yetakchisi va “Teatr” va “notiqlik” klub koordinatori. “Yosh iste’dodlar-2022” respublika tanlovida “Qurilish vazirligi” tomonidan taqdirlangan.

XIRGOYI

Aka, yana qaytib keldim,
Tomirimda ishq zanglari.
Bugun “yallo” aytib keldim,
Yuragimni jaranglatib.

Kel-ey, kel-ey, yallolayey, yallola.

Baxtsizlik yo‘q, vaqtsizlik bor,
Orziqishlar, hislar daydi.
Endi ko‘zim uchmas takror,
Kipriklarim to‘kilmaydi.

Voh-ey, voh-ey, yallolayey, yallola.

Kun ko‘ksiga sig‘mas kulgu,
Yelkalarda sovuq hadik.
Har qadamda to‘la qayg‘u
To‘yib-to‘yib yashagulik.

A-hey, a-hey, yallolayey, yallola.

Sidiraman alamlarni,
Mayli, suymay ketsin-da yor.
Yurak chertar qadim-qadim,
Ohanglarini, shashqator...

Sel-ey, sel-ey, yallolayey, yallola...
Yal-lo-la-a-a...

Gulnoza YUSUPOVA,
Kattaqo‘rg‘on pedagogika instituti talabasi.

Ona... Qariyapman dema qo‘rqaman,
Sochingda oq ko‘rib, ko‘nglim bo‘lar
g‘ash.

Siniqqan rangingni ko‘rib aytaman,
Yaxshiman demagin kerakmas aldash.

Ona... Ro‘molingni boshimga o‘rab,
Ro‘zg‘or-u tashvishing o‘zim olardim.
Yana yashashing-chun Allohdan so‘rab,
Umringga umrimni qo‘shib berardim.

Onajon... Yoshingni yarmini yashab,
Sabringga tasanno aytaman bugun.
Dunyoning yukini yelkamdan tashlab,
Erkalanib yotsam tizzangda har kun.

Ta‘rifing topolmay faqat yig‘ladim,
Mehringga qiyosdir hayotning boli,
Qadoq qo‘llaringni ko‘rib angladim,
Ona... Sen ekansan sabr timsoli...

Sabina ZOYIROVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi.

DIQQAT!

Qadrli, mushtariylar!

“Samarqand yoshlari” gazetasida
“Shevam — faxrim” loyihasi.

Unda siz, azizlar tomoningizdan nafaqat viloyatimiz, balki respublikamizning barcha hududlariga taalluqli bo‘lgan shevalarning o‘ziga xosligi va jozibasini aks ettirib yuborilgan eng sara ijodiy ishlarni (hikoya, maqola, she‘r, xabar yoki audio xabar) gazetamiz sahifalari hamda ijtimoiy tarmoqlarimizda omma e‘tiboriga havola etib boramiz.

Loyihamizda ishtirok etib, shevangizning go‘zal qirralarini biz bilan birgalikda namoyon eting.

ATANGI ORZULARN- DAKI HAYOTI QAYTARIB BAR

Taslim bo‘ljak adm, anam aytdila...
— Atang sanga hech qachon bo‘lmag‘an hamma narsani uzini orzularnnan gechib bo‘lsanam bard. Atangi orzularndaki hayoti qaytarib bar.

Feruza QALANDAROVA,
Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi
bir guruh aholi shevasi
asosida oqqa ko‘chirdi.

Hurmatli mushtariylar, gazetamizning mazkur soni, undagi materiallar jozibadorligi, ko‘lami hamda saviyasi haqidagi fikrlaringizni ushbu QR kod orqali bildirishingiz mumkin.



Samarqand
yoshlari

MUASSIS:
“Samarqand kelajagi”
mas‘uliyati cheklangan jamiyati

Manzil: Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi 80-uy, Telefon: +998933597378

Muharrir: Vahobjon AVAZOV

AXBOROT HAMKORLARIMIZ:

Yoshlar ishlari, Sport,
Maktabgacha va maktab ta‘limi,
Sog‘liqni saqlash, Turizm va madaniy meros,
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari,
oliy ta‘lim muassasalari va viloyat,
tuman (shahar) hokimliklari

Gazeta Samarqand viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2022-yil 31-mayda 09-17 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Obuna indeksi: 5590, 2000 nusxada ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-3 Buyurtma _____

Gazeta «Samarqand yoshlari» tahririyatida sahifalandi.
«Sherdor plyus poligraf» MCHJ bosmaxonasida chop etilgan.
Korxonaning manzili: Samarqand shahri U. Tursunov ko‘chasi 82-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 16:00 da. 2025-yil 29-sentabr
Bosishga topshirildi: 10:00 da

Bahosi kelishilgan narxda

t – tijorat material